

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



NUTQ MALAKALARI INTEGRATSIYASI
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100 000 - Ta'lism
Ta'lism sohasi:	110 000 – Ta'lism
Ta'lism yo'nalishi:	60111800 – Xorijiy til va adabiyot (nemis tili)

Chirchiq – 2023

Fan/mavzu kodi NMI208	O'quv yili 2023-2024 2024-2025	Semestr 1/3/4	Kreditlar 14
Fan/mavzu turi Majburiy	Ta'lim tili Nemis/o'zbek		Haftadagi dars soatlari 8/4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Nutq malakalari integratsiyasi	194	226
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsadi – talabalarga tilning og'zaki va yozma shakllarini integrallashgan holda o'rgatish, ularning turli kontekstlardagi muloqot malakalarini rivojlantirish, xususan o'rganilayotgan chet tili ko'nikmalari to'g'risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko'nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishlarini ta'minlashdir. Fanning asosiy vazifasi umume'tirof etilgan xalqaro me'yordarga ko'ra talabalarning o'rganilayotgan chet tilini B2 darajada egallashlari uchun zaruriy til ko'nikmalarini integrallashgan tarzda o'rgatish va muloqot malakalarini rivojlantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - hozirgi multi-madaniyatli dunyoda ta'lim oluvchilarda chet til o'rganish muhimligi tushunchasi; chet tilida muloqot qilish, o'z ustida mustaqil ishlash va ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida.</p> <p>II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)</p> <p>II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - shaxs va shaxsiyat: tarjimai hol, xorijiy mamlakat fuqarolarining o'zaro salomlashishlari va suhbatga kirishishlari haqidagi dialoglar; - muloqot madaniyati: o'zaro axborot almashish, telefon raqami, manzili, millati va shaxsiy ma'lumotlari borasida fikr almashish; - milliy ramzlar va o'rganilayotgan chet tilida so'zlovchi mamlakatlar: turli milliy ramzlar muhokamasi, diagramma ko'rinishida o'rganilayotgan chet tilida so'zlashuvchi mamlakatlar va O'zbekistonning siyosiy davlat tuzilishini taqqoslash; - narsalar va hodisalar: turli xil buyumlarni nemis tilida qay tarzda so'ralishi va qay tarzda javob berilishi; - iltimos qilish va buyurish: kerakli vaqtida qanday iltimos qilish va qanday buyruq berish; 		

- **buyurtma qilish:** bir-birlaridan hol-ahvol so'rash, kimnidir tanishtirish, biror tamaddixonada buyurtma qilishni, to'lov qanday amalga oshirish, narxni aytish;
- **bayram rejalashtirish:** nemis tilida bayramlar qay tarzda rejalashtirishi borasida kerakli bilim va ko'nikmalarni olish;
- **soatlar va hafta kunlari:** soatlar va hafta kunlarini qanday aytilishi, tugilgan kunlarni va muhim sanalarni so'rash;
- **xarid qilish:** xarid paytida amalga oshiriladigan suhbatlarni tashkil eta olish, narxni so'rash, xushomad qilish;
- **mening uyim:** o'z yashash joylarini tasvirlay olish;
- **bo'sh vaqtni maroqli o'tkazish:** bo'sh vaqtlarida qiladigan mashg`ulotlari haqida gapirash;
- **Germaniyada yashash:** chet elga borganda o'zini qanday tutishni o'rganish, o'tgan zamon haqida gapirish ko'nikmasi;
- **munosabatlar:** turli mamlakatlardagi ajralishlar soni aks etgan statistik ma'lumotlar bilan tanishadilar va muhokama qiladilar. Talabalar
 - **tana a'zolari:** tana a'zolarini nemis tilida qanday aytishini o'rganish, qaysi tana a'zosida og'riq borligini aytib bera olish;
 - **shifokor xuzurida:** o'z kasalliklari haqida ma'lumot berish, shifokor tomonidan berilgan tavsiyalarni buyruq maylida aytta olish;
 - **ish kunini tashkillashtirish:** o'z ish kunlarini qay tarzda o'tkazishini aytish, xat yozishni mashq qilish;
 - **kiyim kechaklar:** kiyimlar haqida gapira olish, yoqtirgan va yoqtirmagan kiyimlarini tasvirlab berish;
 - **transport vositalari:** transport vositalarini o'rganish va bir-biri bilan taqqoslash;
 - **maktabdagi fanlar:** maktab paytlari haqida ma'lumot berish, tarbiya turlari haqida m'
 - **o'zaro kelishuv va konflikt :** do'stlik va konflikt haqida munozara yuritish;
 - **telefonsiz hayot:** ommaviy axborot vositalari haqida gapuirish, gazetadagi e'lonlarni oo'qish;
 - **kasbiy ta'lim kelajak uchun orzular:** kelasi zamon haqida gapirish, kasblarning ijobiy va salbiy tomonlari haqida gapirish;
 - **sevimli mashg`ulotlar:** xushomad qilish va xushomadga javob qaytarish;
 - **turizm:** turizm haqida ma'lumot to'plash, taklif bildirish, fikr almashish;
 - **shifokor qabulida:** muammolarni aytish, shaxsiy tajribasi haqida fikr

almashish;

-qo'shnichilik munosabatlari: o'z uy va qo'shnilarini tasvirlab berish, qo'shnilar orasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolari haqida gaplashish;

-xarid qilish qobiliyati: xarid qilish imkoniyati haqida, bozorda yoki supermarketda xarid qilish haqida gapiresh;

-sug'urta haqida: sug'urta haqida ma'lumot berish, sug'urta kompaniyalari va banklar haqida shaxsiy tajriba almashish;

-ovqatlanish odatlari: odatlар va o'zgarishlarni tasvirlash, ovqatlanish odatlari haqida gapiresh;

-atrof-muhofazasi: energiya tejash haqida muhokama qilish,

-sport sog'lik garovi: sport haqida gapiresh, sport mavzusida rasmiy va norasmiy xat yozishni o'rghanish;

-ko'ngilli bo'lib ishslash: ko'ngilli bo'lib ishslash, bir-biri bilan ma'lumot almashish;

-dunyo shaharlari: diqqatga sazovor joylar haqida gaplashish, yo'lni tasvirlash, xalqlar madaniyatini bir-biri bilan taqqoslash;

III. Amaliy mashg'ulotlar buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Fanni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodi va chet tilini o'qitishga kommunikativ yondashuvdan maksimal darajada foydalanish talab etiladi. Mashg'ulotlarda darslik va o'quv qo'llanmalardan tashqari autentik materiallar: audio, video, gazeta va jurnallar, internet manbalaridan, interaktiv usullarni qo'llagan xolda aqliy xujum, keys-stadi, loyixalar tayyorlash, ro'lli o'yin, debatlar, prezentatsiya metodlaridan keng foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulotlarda aqliy xujum, keys-stadi, kichik guruhlarda ishslash, insert, prezintatsiya kabi usullardan keng foydalaniladi. Modullar 100%o'rganilayotgan tilda o'qitiladi va quyidagi Grammatik mavzular ham tavsiya etiladi.

- artikllar;

- son;

- fe'l (m.n.: fe'l zamonlari, fe'l mayllari, nisbatlari, modal fe'llar, fe'lli birikmalar, fe'lning noaniq shakllari: infinitiv, hozirgi/o'tgan zamon ravishdoshlari, h.k.);

- so'roq so'zlar, savol/javob va inkor;

- so'z yasalishi xususiyatlari;

- predloglar;

- zamonlar.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruh kichik guruhlarga bo'lingan holda ikki nafar professor o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rghanib, izlanishlar olib boradi. Olingen natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fandasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fremdsprache lernen
2. Gesund Essen
3. Haustiere
4. Internet
5. Kinder und Femsehen
6. Kinder und Handy
7. Luft Verschmutzung
8. Mittags schlafen
9. Rauchverbot
10. Reise
11. Haushalt
12. Unabhängigkeit Usbekistan
13. Feste und Feiertage
14. Mein Arbeitstag
15. Meine Lieblingsveranstaltung
16. Freizeit und Hobby
17. Beim Arzt
18. Interaktive Methoden
19. Freundschaft
20. Land und Stadt
21. Natur
22. Bücherwurm
23. Online Lernen

	<p>24. CREAM Methoden 25. Motivation 26. Zielstellung 27. Lerntypen 28. Vier Fertigkeiten im Fremdsprachenunterricht 29. Soziale Netzwerke 30. Bildungssystem in Usbekistan</p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • nutq malakalari integratsiyasi, og‘zaki va yozma nutq amaliyoti haqida tasavvurga ega bo‘lish; (bilim) • o‘rganilayotgan chet tilida o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozishni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma) • o‘zining til ko‘nikmalarini rivojlantirish borasidagi faoliyatini baholay olish va refleksiyalarini qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. (malaka)
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg‘ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • til aspektlarini o‘rgatish amaliyoti kompetensiyasi hamda grammatika, leksika o‘qitish haqida tasavvurga ega bo‘lish; (bilim) • til aspektlari to‘g‘risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda ularni kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo‘llay olishni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma) • o‘zining til ko‘nikmalarini rivojlantirish borasidagi faoliyatini baholay olish

	va refleksiyalarini qo'llay olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.</i> (malaka)
7.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihamar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihamar. • ijodiy ishlar yaratish
8.	<p style="text-align: center;">IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakillarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.</p>
9.	<p style="text-align: center;">X. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Kaufmann S., Moritz U., Rodi M. u.a. Linie A1. Kurs- und Übungsbuch, Ernst Klett Sprachen Verlag, Stuttgart 2017 (Alle Audio-, Video-Dateien und Glossare zum Download unter www.klett-sprachen.de/linieA1). 2. Michaela Perlmann-Balme , Susanne Schwalb , Jutta Orth-Chambah. Sicher Deutsch als Fremdsprache B1+, B2. Hüber Verlag, Stuttgart, 2014. <p style="text-align: center;">XI. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ute Koithan u.a. Aspekte B1 Langenscheidt Verlag. Berlin. Deutschland. 2007. 2. Klett Lernen und Wissen Gulde -Druck GmbH Stuttgart, 2006. 3. Guenter Kempcke. Deutsch als Fremdsprache Walter de Gruyter. Berlin-New York, 2000. 4. Funk, Hermann; Kuhn, Christina. Das Leben A1. Kurs- und Übungsbuch. Cornelsen. 2020/21 <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.cspl.uz 2. www.klett-sprachen.de/linie1 3. www.edu.uz 4. http://ziyonet.uz 5. www.mein.deutsch

	<p>6. www.hueber.de/aspekte 7. www.deutsch.unterricht.de 8. www.grammatik.de 9. www.grammatik-online.de 10. www.lexikon.freenet.de/Literaturdidaktik 11. www.begegnungen-deutsch.de</p>
9.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “_____” _____ dagi qarori bilan tasdiqlangan
10.	Fan/modul uchun mas'ul: Z.I.Sanakulov - ChDPU "Nemis tili" kafedrasи mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
11.	Taqrizchilar: X.R. Raximov - O'zDJTU,Romon- german fakulteti, Nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasи dotsenti, f.f.n. Kinjaeva G.S. – O'zDJTU, "Nemis tili amaliy fanlar" kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori. (PhD)